

“BESH TASHABBUS” DOIRASIDA TALABA YOSHLAR FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

Muzaffar Parmonov

+998949144043

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar uchun besh muhim tashabbus” loyihasi doirasida talaba-yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy faolligini oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Besh tashabbusning har bir yo'nalishi — san'at va madaniyatga jalb etish, sport bilan shug'ullanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar. Besh tashabbus, talaba yoshlar, ijtimoiy faollik, yoshlar siyosati, raqamli savodxonlik, sport faolligi, kitobxonlik, xotin-qizlar bandligi, kreativ ko'nikmalar, interaktiv metodlar, motivatsiya, OTMda tarbiyaviy ishlar.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri yoshlar siyosatini takomillashtirish, ularning intellektual, ma'naviy va kasbiy salohiyatini yuksaltirishdan iborat. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yoshlar uchun besh muhim tashabbus” tashabbuslari aynan yosh avlodning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularda kreativ fikrlashni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va zamonaviy ko'nikmalarni egallashga keng imkoniyat yaratmoqda. Bugungi kunda ushbu tashabbuslar oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning asosiy ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, talaba-yoshlar uchun san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitobxonlik va xotin-qizlar bandligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida “Besh tashabbus”ni samarali tatbiq etish nafaqat talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, balki ularning ma'naviy immuniteti, liderlik qobiliyatlari, kommunikativ

kompetensiyalari va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tashabbuslarni amalda joriy etish jarayonida dekan o'rinbosari, yoshlar yetakchilari, murabbiylar va jamoatchilik kengashlarining o'zni beqiyosdir. Ularning hamkorlikda, tizimli ravishda tashkil etgan ishlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga, talabalarni ma'naviy-ma'rifiy muhitga integratsiya qilishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. “Besh tashabbus” tashabbuslari va ularning talaba-yoshlar rivojiga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar uchun besh muhim tashabbus” tashabbusi talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, ularning ma'naviy, intellektual va jismoniy rivojiga xizmat qiluvchi kompleks dastur hisoblanadi. Har bir tashabbus oliy ta'lim muassasalarida o'ziga xos yo'nalish bo'yicha maqsadli vazifalarni belgilab beradi.

1. San'at va madaniyatga jalb etish tashabbusi talabalarda ijodkorlik, estetik did va madaniy saviyani oshirishga xizmat qiladi. OTMlarda “Musika”, “Tasviriy san'at”, “Teatr madaniyati”, “Milliy meros” yo'nalishlarida to'garaklar ochilishi, talabalar orasida tanlov, ijodiy ko'rik va festivallarning o'tkazilishi ularning ma'naviy tafakkurini boyitadi.

2. Sport bilan shug'ullanish uchun shart-sharoit yaratish talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning eng samarali vositasidir. Fakultetlar kesimida mini-futbol, voleybol, shaxmat-shashka, yengil atletika bo'yicha musobaqalar o'tkazilishi jismoniy faollikni oshiradi, ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi.

3. Axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish tashabbusi talabalarning raqamli tafakkurini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. IT to'garaklari, startap loyihalar, dasturlash bo'yicha treninglar talabalarni zamonaviy kasblarga yo'naltiradi. Bu orqali talabalar o'z intellektual salohiyatini ro'yobga chiqaradi.

4. Kitobxonlikni targ'ib qilish tashabbusi yoshlar dunyoqarashi va ma'naviy immunitetini kuchaytiradi. OTM kutubxonalarida "Kitob haftaligi", "Bir talaba bir kitob", "Adabiyot kuni" kabi loyihalar talabalarni muntazam o'qishga undaydi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi.

5. Xotin-qizlar bandligini ta'minlash tashabbusi talaba qizlarni kasbiy rivojlanish yo'nalishiga yo'naltirishda muhim o'rin tutadi. Tikuvchilik, hunarmandchilik, dizayn, pazandachilik kabi yo'nalishlardagi o'quv amaliyotlari ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tashabbuslarning har biri talaba-yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy kamoloti, ijtimoiy faolligi va kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tashabbuslarning mazmun-mohiyati dekan o'rinbosari, yoshlar yetakchisi va murabbiylar tomonidan tizimli tarzda tushuntirilganda uning samaradorligi yanada oshadi. Talaba-yoshlar faolligini oshirish mexanizmlari: amaliy yondashuv va innovatsion usullar. Talabalar faolligini ta'minlashda "Besh tashabbus"ni samarali joriy etish uchun quyidagi usullar muhim ahamiyatga ega:

Интерактив ta'lim va tarbiya texnologiyalaridan foydalanish. Treninglar, mahorat darslari, motivatsion seminarlar talabalarning o'z fikrini erkin bayon etish, jamoada ishlash, liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Davra suhbat", "Aqliy hujum", "Case-study", "Mind-map" kabi metodlar ularning faolligini oshirishda samarali hisoblanadi.

Fakultetlar kesimida to'garaklar va klublar faoliyatini kuchaytirish. "IT club", "Book club", "Sport club", "Art studio", "Young leaders" kabi klub va to'garaklar talabalar uchun o'z qobiliyatini ko'rsatish muhitini yaratadi. To'garaklar bilan muntazam ishlash natijasida talabalar o'z qiziqishlariga mos faoliyatga jalb etiladi.

Rag'batlantirish tizimini takomillashtirish. Faol talabalarni faxriy yorliq, stipendiya, sertifikat, tavsiyanoma bilan mukofotlash ularning motivatsiyasini oshiradi. Rag'bat tizimi shaffof va aniq mezonlar asosida tashkil etilishi talabalar o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantiradi.

Raqamli platformalar orqali faollikni oshirish. Telegram kanallari, “Student portal”, “Online club”, mobil ilovalar orqali talabalarni tezkor axborot bilan ta’minlash ularning ishtirokini yengillashtiradi. Masalan, onlayn ro’yxatga olish, digital loyihalar, virtual musobaqalar talabalarining faolligini oshiradi.

Talabalarining tashabbuskorligini qo’llab-quvvatlash. Har bir talabaning shaxsiy tashabbuslarini eshitish va uni amalga oshirishga ko’maklashish — muhim mexanizm. “Tashabbuslar tanlovi”, “Eng yaxshi loyiha”, “Yoshlar startapi” kabi loyihalar kreativ fikrlovchi yoshlarga imkoniyat yaratadi.

Xotin-qizlar uchun alohida dasturlarni joriy etish. Talaba qizlar bilan ishlash bo’yicha alohida mentorlik dasturlari, psixologik treninglar, kasbiy ko’nikmalar bo’yicha o’quv kurslari ularning faolligini oshiradi. Gender tenglik tamoyillari asosida tashkil etilgan tadbirlar qizlarning ijtimoiy va akademik faolligini kuchaytiradi.

Jamoatchilik kengashi va ota-onalar bilan hamkorlik. Talabalar muammolarini erta aniqlash, ularni hal qilishda OTM, dekanat, jamoatchilik kengashi, psixolog va ota-onalar o’rtasidagi hamkorlik samaradorlikni oshiradi. Talaba xavfsizligini ta’minlash, profilaktika tadbirlarini o’tkazish faollikka ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar uchun besh muhim tashabbus” loyihasi talaba-yoshlarning ma’naviy, ijtimoiy va kasbiy rivojini ta’minlashga qaratilgan strategik dastur sifatida oliy ta’lim tizimida muhim o’rin egallaydi. Ushbu tashabbusni amaliyotga samarali tatbiq etish natijasida talabalar o’z qobiliyatlarini namoyon qilish, bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish, raqamli ko’nikmalarni rivojlantirish, sport va ijodiy faoliyatda muntazam qatnashish imkoniyatiga ega bo’ladilar. Tadqiqot davomida aniqlanganki, talaba-yoshlar faolligini oshirishning asosiy mexanizmlari — interaktiv ta’lim metodlarini qo’llash, to’garak va klublar faoliyatini takomillashtirish, rag’batlantirish tizimini yaratish, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, shuningdek talabalarining shaxsiy tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashdan iborat. Tashabbuslarni samarali tashkil etishda dekan o’rinbosari, yoshlar yetakchisi, murabbiylar, psixologlar va jamoatchilik kengashining o’zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, “Besh tashabbus”ni uzluksiz, tizimli va innovatsion yondashuv asosida amalga oshirish talabalarning ijtimoiy faolligi, ma’naviy immuniteti va kasbiy salohiyatini sezilarli ravishda oshiradi. Bu esa OTMda sog‘lom, faol, tashabbuskor va mas’uliyatli yoshlar avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yoshlar uchun besh muhim tashabbus” bo‘yicha topshiriqlari. — Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil.
3. Qodirov A., Rasulova M. Yoshlar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlar metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2022.